
"Zulfiya" nomidagi Davlat mukofoti uchun o'tkazilayotgan tanlovning Farg'ona shahar bosqichida eng munosiblar saralandi

Mamlakatimizda ayolni muqaddas bilish, unga alohida ehtirom ko'rsatish, ozod va obod yurtimiz kelajagi bo'lgan har tomonlama yetuk yoshlarni tarbiyalashdagi beqiyos o'rnini e'tirof etish, barkamol, oqila xotin-qizlar avlodini voyaga yetkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, ular orasidagi iqtidorli yoshlarning adabiyot, san'at, fan va madaniyatni rivojlantirishdagi yutuqlari, tengdoshlarining milliy istiqlol g'oyalari va madaniy-ma'naviy qadriyatlarga e'tiqodining yuksalishi yo'lidagi ibratli faoliyati, keng ko'lamlı islohotlarni jadallashtirishdagi faol ishtirokini rag'batlantirish ham bugungi kunning dolzarb masalasi bo'lmoqda.

Shu maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999 yil 10 iyundagi "Zulfiya nomidagi Davlat mukofotini ta'sis etish bo'yicha takliflarni qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi 2326-sonli Farmoni qabul qilingani iqtidorli, ijodkor, izlanuvchan qizlar uchun katta imkoniyat berdi. Bugun ushbu tanlovning Farg'ona shahar bosqichi o'tkazildi.

Tadbirni viloyat hokimi o'rinbosari, oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig'i Komilaxon Kavlonova ochib, so'nggi yillarda mazkur tanlov yanada takomillashgani, ishtirokchilari soni ortib borayotgani hamda har bir hududdan ikki nafardan g'oliblar saralanayotganligiga alohida e'tibor qaratdi hamda shahar bosqichiga tashrif buyurgan xotin-qizlarga omad tiladi.

Tanlovning shahar bosqichida 7 ta yo'nalish bo'yicha 43 nafar iqtidorli, shoira, kashfiyotchi, jamoat ishlarida va boshqa turli sohalarda faol bo'lgan 14-30 yosh oralig'idagi xotin-qizlar ishtirok etdilar. Ular xay'at a'zolari tomonidan adolatli baholandi.

Tadbir davomida "Zulfiya" nomidagi Davlat mukofoti shahar bosqichida faol bo'lgan ishtirokchilar shahar hokimining tashakkurnomasi hamda qimmatbaho esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati
2022-10-25 16:48:48